



**SOBIQ SSSR DAVLATI TASHQI SIYOSATIDA ISLOM DININING
TA'SIRI**

**THE INFLUENCE OF ISLAM IN THE FOREIGN POLICY OF THE
FORMER USSR**

**ВЛИЯНИЕ ИСЛАМА НА ВНЕШНЮЮ ПОЛИТИКУ БЫВШЕГО
СССР**

Arslonbekov Nursulton Azizbek o'g'li
Qarshi Davlat Universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sovet Ittifoqining Islom diniga nisbatan yuritgan siyosati ko'rib chiqiladi. Xususan, Musulmon mamlakatlar bilan munosabatlarda islom faktori hamda diniy boshqaruv organi bo'lmish, Muftiyliklar ta'sirini xolis yoritishga harakat qilinadi. Sovetlarning ikkiyuzlama siyosati hamda mana shunday murakkab vaziyatda diniy tashkilotlarning qanday qilib omon qolganligi tahlil qilingan. Maqolada ilmiy yondashuv asosida tarixiy haqiqatlarni rus, g'arb va milliy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar : SSSR da islom, muftiylik, siyosat, Misr, Eron, SADUM.

Abstract

This article examines the Soviet Union's policy towards Islam. In particular, an attempt has been made to objectively cover the activities of the Muftis, the religious governing body of Muslims, and their relations with the state. The Soviets' hypocritical policy and how religious organizations survived in such a difficult



situation are analyzed. The article analyzes historical facts based on scientific correspondence, based on Russian, Western, and national sources.

Keywords: Islam in the USSR, MUFTIATE, politics, Egypt, Iran, SADUM

Аннотация

В статье рассматривается политика Советского Союза в отношении ислама. В частности, предпринята попытка объективно осветить деятельность муфтиев – религиозного органа управления мусульман – и их взаимоотношения с государством. Анализируется лицемерная политика Советов и то, как религиозные организации выживали в столь сложной ситуации. В статье анализируются исторические факты, основанные на научной переписке, а также на российских, западных и отечественных источниках.

Ключевые слова: ислам в СССР, муфтият, политика, Египет, Иран, САДУМ.

KIRISH

Agar Sovet hukumatining qariyb 75 yillik boshqaruviga e'tibor bersak, u yerda juda qiziq bir holatga duch kelamiz. Ya'ni ichki va tashqi siyosatda islom dini bilan hisoblashish. Sababi oddiy, sovuq urush natijasida G'arbning har qanday global mavqesiga hujum qilish uchun, sovetlar diniy faktordan "Islom dinidan" foydalandi.

Avvalo shuni ma'lum qilish kerakki, Qizil imperiya davrida mamlakat aholisining katta qismini musulmonlar tashkil etardi. Bu ayniqsa, Kavkaz, Sibir va O'rta Osiyoda aholining ulkan etnik guruhini tashkil etardi. Tashqi va ichki siyosatda xalqni nazorat qilish uchun Moskvaga din va u bilan bog'liq diniy



tashkilotlarning ahamiyati juda muhim edi. Tashqi siyosatda musulmon davlatlar bilan aloqani esa, Islom dinisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Sovetlar tashqi siyosatining Islom bilan bog'liqligi ikki xil ko'rinishga ega bo'lib, bu bir tarafdin o'ziga janubiy qo'shni hisoblangan Eron Islom inqilobi bilan Anti-imperialistik maqsad ortidan kelishuvga asoslansa, ikkinchi tarafdin sotsial qarashlarga qarshi bo'lgan Afg'oniston masalasi edi.

Sovet Ittifoqi musulmonlar soni bo'yicha XXasrdagi beshinchi ulkan mamlakat edi. Sovetlar butun davr mobaynida aynan Ikki asosiy kuch Sotsializm va Islomni bir butun mohiyat sifatida ko'rsatishga intildilar. Lekin aholining 1/3 qismini tashkil etuvchi musulmonlar bilan kelishmaslikni, ularni tiyib turuvchi institut va siyosiy richaglarni ishlatmaslikning iloji yo'q edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Islom ulamolarining o'zaro aloqalarini va zamonaviy yondashuvlarini, siyosiy va madaniy hamkorliklarini yoritishda, Kate Zabirining asari ham muhim manbadir.¹ Dunyodagi siyosiy va globallashuv jarayonlarida SSSR nomidan musulmon davlatlar bilan aloqa bog'lagan Musulmon diniy tashkilotlar, xususan O'OQMDB ning Afrika ,Osiyo va boshqa ko'plab mamlakatlar bilan aloqalarini o'rganishda Polyanskayaning ishlari ham diqqatga sazovordir.²U o'z izlanishlarida mintaqadagi mavjud davlatlarning dinga nisbatan munosabatini yoritar ekan, yagona xulosaga keladi, ya'ni din yuqori turuvchi hokimiyat orgnalarining xalqni boshqarish mexanizmi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, Sovet O'rta Osiyosida islomga oid bir nechta nufuzli tadqiqotlar nashr etilgan. So'nggi yillarda SSSRda dinni nazorat qilish bo'yicha idoralar, jumladan, 1965 yilda Din ishlari bo'yicha Kengash (DIK) va O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi (O'OQMDN)

¹ Zebiri Kate, 1993. Mahmud Shaltut and Islamic Modernization. Oxford: Clarendon Press.

² Polonskaya, L.R. 1985. Vliianie "islamskogo faktora" na mezhduradnye otnosheniia v Azii i Severnoe Afriki i politika Zapada na sovremennom etape: sbornik statei. Moscow: Institut Vostokovodeniia.



orqadan boshqargan tashkilot, Diniy nazoratlar ishlari bo'yicha kengash (DKK) arxivlarining ochilishi sovet davlati bilan Islom o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni qayta tiklashga yo'l ochdi. (lekin, hali ham asosiy arxiv materiallarini olib bo'lmadi) Shu nuqtai nazardan, Oksford universiteti nashriyoti tomonidan nashr etilgan Eren Tasarning Sovet va Musulmon kitobi mavzu bo'yicha dissertatsiya uchun ahamiyatlidir. Muallif Tojikiston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Moskva arxivlarida olib borilgan kuchli tadqiqotga tayangan holda, Sovet O'rta Osiyosida kommunist va musulmon bo'lish nimani anglatishini tanqidiy chuqur tahlil qiladi. 1943 yildan beri Tasar SSSRda islomga nisbatan davlat siyosatining evolyutsiyasini o'z asarida keltirib o'tadi. Ikkinchi jahon urushining sovetlarning dinga nisbatan siyosatini tushunishdagi ahamiyatini kontekstlashtirgan kirish bobidan so'ng (1-bob), so'ngi stalinizm davrida (2-bob), O'QMDNning o'sha davrda O'rta Osiyoda Islom bilan aloqalarini institutsionallashtirish bo'yicha ishlar (3-bob) davrida islomga oid qoidalarining yumshatilgani muhokama qilinadi (1-bob). islomga nisbatan keskin munosabat (4-bob), 1960-yillardan buyon sovet diplomatiyasida islomning xalqaro roli (5-bob), Tasar o'z tadqiqotida, oxirgi stalinizm davrida SSSRda Ikkinchi jahon urushi ta'siri va muammoning ahamiyatsizligi tufayli Islomga nisbatan nisbatan bag'rikenglik munosabati shakllanganligini ta'kidlaydi.³

Sovuq urush yillaridagi ikki qutbli dunyoning yaratilishi fonida sobiq SSSR va uning rahbariyati uchinchi dunyo mamlakatlarini, xususan, Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlarini o'z doirasiga olishga harakat qildi. "Afrika ruhi" va uning keyingi davrdagi pan-Afrikanizm g'oyalarining shakllanishida ham ittifoqning juda katta ta'siri bor edi. Shu davrdagi u yoki bu vaziyatni, SSSR ning xalqaro munosabatlardagi rolini va ulardagi diniy ulamolarning XX asrdagi nufuzini hisobga

³ Eren Tasar, Soviet and Muslim. The Institutionalization of Islam in Central Asia. New York: Oxford University Press, 2017, 409 PP



olsak, O‘OQMDN va uning rahbariyatining xalqaro siyosatdagi ahamiyatini anglashimiz yanada osonlashadi.⁴

NATIJA VA MUHOKAMA

Sovet mamlakatidagi musulmonlar, davlatning Fors ko‘rfazi va Yaqin Sharqdagi musulmon davlatlar bilan aloqalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.⁵ Lekin, mamlakat ichidagi ateistik kayfiyat, ko‘p holatlarda sovetlarga qarshi reaksiya, anti-kommunistik kuchlarni ham bu davlatlarda shakllantirib bordi. Islomning amalda unga qarshi taraflari borligi, xususan e‘tiqod erkinligi va ateistik targ‘ibot tufayli, sovetlar yangicha “Sovetcha islom” mafkurasini yaratishga intilishdi. Bolsheviklar bu orqali Eron Islom Respublikasi kabi mamlakatlar bilan aloqalarda o‘zlari suyana oladigan Musulmon jamiyatini tashkil etishdi.

Bunda sovetlar islomning g‘arbparastlikni qat’iy qoralashidan hamda ichki kadrlaridan unumli foydalandi. Yevgeniy Primakov Moskvaning “Yaqin Sharq” ishlari bo‘yicha vakili bo‘lib, u sovetlarning arab mamlakatlari bilan aloqalarda bosh rolni o‘ynagan siyosatchilardan hisoblanadi.

Soni bo‘yicha musulmonlar eng ko‘p yashaydigan sobiq SSSR o‘z tashqi siyosatining asosi sifatida boshidan arab davlatlarini nishonga olgan edi. Lekin Lenin va u boshliq bolsheviklar “Islom” diniga sotsializmga qarshi asosiy kuch sifatida qaradi va ateistik hujumni boshlab yubordi. Shunga qaramay sovet hukumati aholi orasidagi diniy bog‘liqlikni tugata olmadi. Ikkinchi tarafdin, agar ular musulmon mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlashni istasa, ichki diniy holat bilan qisman kelishuv lozim edi. SSSR ayni damda 3ta ulkan musulmon davlat Eron, Afg‘oniston

⁴ W. McClellan, “Africans and Black Americans in the Comintern Schools, 1925–1934”, *The International Journal of African Historical Studies*, 26 / 2 (1993): 371–390; W. Taubman, *Khrushchev: The Man and His Era* (New York, NY: W.W. Norton, 2003); D. C. Heldman, *The USSR and Africa: Foreign Policy Under Khrushchev* (New York, NY: Praeger, 1981); These figures come from O. M. Gorbachev and LIA Cherkasski, *Sotrudnichestvo SSSR so stranami Arabskogo Vostoka i Afriki* [Cooperation between the USSR and the Countries of Arab East and Africa] (Moscow: Nauka, 1973)

⁵ S. Chubin, 1980. *Soviet policy towards Iran and the Gulf*, London: International Institute for Strategic Studies. Pp.21-58.



va Turkiya bilan chegaradosh edi va bu islomni davlat siyosatining muhim qismiga aylantirdi. Sovetlar ikki xil siyosiy rejani ishlab chiqdi. Avvalo, Musulmon dunyosiga o'zini G'arbga qarshi qahramon qilib ko'rsatishi, keyin esa, musulmonlarni o'ziga ergashtirishi kerak edi. Hammasidan ham muhimi, ichki siyosatda Islomni to'liq nazoratga olishi kerak edi.

Sovet hukumati o'z musulmon aholisini turli diniy tashkilotlar (ularning soni 4ta edi, muallif) orqali boshqardi. Lekin tashqi siyosatda qisman ulardan foydalandi, bunga asosiy sabab, ichki ishonchsizlik bo'lgan bo'lsa kerak⁶. Lekin ma'lum bir voqealarda O'rta Osiyodan yetishib chiqqan din vakillarining elchilik va tashqi siyosatni amalga oshirishda vakil sifatida ham qatnashgani ko'rinadi⁷.

Ikkinchi Jahon urushigacha bo'lgan sovet siyosatida Moskva boshqa davlatlardagi musulmonlarni tashqi siyosiy kuchlarga qarshi qo'ygan bo'lsa, Stalin davridan boshlab, o'zining musulmon aholisiga erkinlik yaratib berishini namoyish qilish orqali, siyosiy ittifoqlar shakllantirishga intildi⁸. Bunga asosiy sabab qilib olimlar, urushdan keyingi davrda musulmon aholining soni ortgani va butun SSSR aholisining 30% tashkil etgani bilan izohlashadi.

Sovuq urush davrida, pan-Arab millatchilik harakati kuchaydi, lekin ushbu motivlarning ko'pchiligi islom shariatiga mos bo'lmaganligi tufayli aholining katta qismi uni qo'llab-quvvatlamadi. Mana shunday vaziyatda Primakov Arab davlatlari va Moskva o'rtasidagi ko'priikka aylandi. Musulmon rahbarlarning ishonchini oqlash uchun "Musulmonlarga hayrixoh siyosat"ni amalga oshirdi. Buning isboti uchun Musulmon mamlakatlarga delegat sifatida "Sovet musulmonlar"i

⁶ G Golan. 1990. Soviet policies in the Middle East : from World War two to Gorbachev. Cambridge University Press. 197 Pp.

⁷ F. Halliday. 1987. Gorbachev and the "Arab syndrome": Soviet policies in the Middle East. World policy journal, Vol4, pp.414-441.

⁸ G Golan. 1990. Soviet policies in the Middle East : from World War two to Gorbachev. Cambridge University Press. 199Pp.



yuborildi. Muftiyliklarning vakillaridan tuzilgan ushbu delegatsiyalardan maqsad, boshqa musulmon davlatlari, xususan Indoneziya bilan ham aloqalarni bog'lash edi⁹.

Tehron bilan tashqi siyosatda ham O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlar diniy boshqarmasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Sovetlar musulmonlar sotsializm sharotida baxtli yashayotganligi ayniqsa, O'zbekiston va Qozog'iston misolida ifoda etildi.¹⁰ Misr Arab Respublikasi rahbari Jamol Abdul Nosirning 1958 yil 28 apreldagi SSSRga tashrifi chog'ida u Toshkentdagi Muftiylik qarorgohi va musulmonlar hayoti bilan tanishdi.

XULOSA

Soni bo'yicha musulmonlar eng ko'p yashaydigan sobiq SSSR o'z tashqi siyosatining asosi sifatida boshidan arab davlatlarini nishonga olgan edi. Lekin Lenin va u boshliq bolsheviklar "Islom" diniga sotsializmga qarshi asosiy kuch sifatida qaradi va ateistik hujumni boshlab yubordi. Shunga qaramay sovet hukumati aholi orasidagi diniy bog'liqlikni tugata olmadi. Ikkinchi tarafdin, agar ular musulmon mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlashni istasa, ichki diniy holat bilan qisman kelishuv lozim edi. SSSR ayni damda 3ta ulkan musulmon davlat Eron, Afg'oniston va Turkiya bilan chegaradosh edi va bu islomni davlat siyosatining muhim qismiga aylantirdi. Sovetlar ikki xil siyosiy rejani ishlab chiqdi. Avvalo, Musulmon dunyosiga o'zini G'arbga qarshi qahramon qilib ko'rsatishi, keyin esa, musulmonlarni o'ziga ergashtirishi kerak edi. Hammasidan ham muhimi, ichki siyosatda Islomni to'liq nazoratga olishi kerak edi. Sovet hukumati o'z musulmon aholisini turli diniy tashkilotlar (ularning soni 4ta edi, muallif) orqali boshqardi. Lekin tashqi siyosatda qisman ulardan foydalandi.

⁹ M. Haykal . 1978. The Sphinx and the Commissar: The Rise and Fall of Soviet Influence in the Middle East.

¹⁰ M. Haykal . 1978. The Sphinx and the Commissar: The Rise and Fall of Soviet Influence in the Middle East.



ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eren Tasar, Soviet and Muslim. The Institutionalization of Islam in Central Asia. New York: Oxford University Press, 2017, 409 PP
2. W. McClellan, "Africans and Black Americans in the Comintern Schools, 1925–1934", The International Journal of African Historical Studies, 26/2 (1993): 371–390
3. W. Taubman, Khrushchev: The Man and His Era (New York, NY: W.W. Norton, 2003)
4. D. C. Heldman, The USSR and Africa: Foreign Policy Under Khrushchev (New York, NY: Praeger, 1981).
5. S. Chubin, 1980. Soviet policy towards Iran and the Gulf, London: International Institute for Strategic Studies. Pp. 21–58.
6. Бальтанова Г.Р. Ислам в СССР : анализ зарубежных концепций. – Казан, Издательство Казанского университета, 1991. – 148 с.